

ONAXON JABBOROVA

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING
4 K MODELI BO'YICHA KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI VA
BOSHLANG'ICH TA'LIM
METODIKASIDA YANGILANISHLAR**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Onaxon Jabborova

**BOSHLANG‘ICH SINF
O‘QUVCHILARINING 4 K MODEL
BO‘YICHA KO‘NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI VA
BOSHLANG‘ICH TA’LIM
METODIKASIDA YANGILANISHLAR**

«SARBON LLS»
Toshkent – 2024

UO‘K:

KBK:

Jabborova O.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4 k modeli bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi va boshlang‘ich ta‘lim metodikasida yangilanishlar. Monografiya. – Toshkent, 2024

Monografiyada “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasi va boshlang‘ich ta‘lim metodikasida yangilanishlar” dunyo mamlakatlari miqyosida amalda bo‘lgan Angliyaning Kembrij kolleji hamda mamlakatimiz Prezident maktablari tajribasidan o‘tgan tizim asosida o‘quvchilarning ko‘nikmasini shakllantirish texnologiyasi hamda keyingi besh yil davomida boshlang‘ich ta‘lim metodikasida ro‘y bergan yangilanishlar yoritilgan.

Monografiya oliy pedagogik ta‘lim muassasalari boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalari, magistrleri, amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, boshlang‘ich ta‘lim metodistlari va muammo bilan qiziquvchi keng jamoatchilikka mo‘ljallangan.

Mas‘ul muharrir:

Mardonov Shukurullo Qo‘ldoshevich – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Ochilov Fariddun Izatulloevich – CHDPU, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tilakova Mavjuda Ashurovna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – Buxoro davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

Mazkur monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-texnik Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. Bayonnoma №11. 14.06.2024

ISBN

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I BOB. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING 4K MODELI BO‘YICHA KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.....	5
1.1. Kommunikatsiya (ta‘lim sharoitidan foydalanish) ko‘nikmasini shakllantirish texnologiyasi	5
1.2. Kollaboratsiya (jamo bo‘lib ishlash) ko‘nikmasini shakllantirish texnologiyasi	13
1.3. Kreativlik (ijodiy yondashuv) ko‘nikmasini shakllantirish texnologiyasi	23
1.4. Kretisizm (tanqidiy fikrlash) ko‘nikmasini	34
shakllantirish texnologiyasi	34
1.5. Boshlang‘ich ta‘limning yangi funksiyalari va uni rivojlantirishning istiqbolli asoslari.....	43
II BOB. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM METODIKASIDA YANGILANISHLAR TIZIMI.....	52
2.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil faoliyatga va ta‘limning keyingi bosqichlariga tayyorlash metodikasi.....	52
2.2. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quv fanlarini turkumlashtirib o‘qitish tajribalari	57
2.3. Boshlang‘ich ta‘limda psixologik xizmat amaliyoti	66
III BO‘LIM. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM METODIKASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYANING AHAMIYATI.....	74
3.1. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasini rivojlantirishda raqamli texnologiyadan foydalanish masalasi.....	74
3.2. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasini rivojlantirishda raqamli texnologiyadan foydalanish shakllari	81
3.3. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasini yangilashning amaliy ahamiyati.....	87
XULOSA	92
TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR.....	94
LUG‘AT.....	97

KIRISH

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida mamlakatimizda 2030 yilga qadar ta’lim tizimini butunlay yangilash va uning mazmunini xalqaro ta’lim dasturlari hamda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalariga moslashtirish vazifalari qo‘yilgan. Mazkur vazifalar jarayonida boshlang‘ich ta’limni 2026 yilga qadar ta’limning sifatli ko‘rsatkichlarini yuksaltirish va uning samaradorligini oshirish islohotlari belgilangan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarorida alohida vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarning negizini boshlang‘ich ta’lim jarayoniga xalqaro miqyosida e’tirof etilgan yondashuvlar, metodikalar, vositalar va texnologiyalarini joriy etish tashkil qiladi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining Angliya Kembrij kollejining 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish masalasiga mamlakatimizda keyingi paytlarda e’tibor qaratilmoqda. Bu ish Prezident maktablari tajribasidan o‘tganligini eslatib o‘tish joiz va 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab mazkur maktabning o‘qitish metodikasi, dastur hamda darsliklari umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun tayanch sifatida belgilandi. Mazkur asoslar ushbu monografiyani tayyorlash masalasini zaruriyat sifatida belgilab berdi.

Tadqiqotning mavzu dolzarbligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy asoslari ishlab chiqilganligi (chunki mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab mazkur to‘rt ko‘nikmasini shakllantirish yo‘lga qo‘yildi) va boshlang‘ich ta’lim metodikasida bo‘layotgan yangilanishlarning ilmiy tahlil qilib berilganligi bilan belgilanadi. Negaki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 4 K modeli bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish asoslari bo‘yicha ilmiy-metodik ishlanmalar endi yaratila boshlaganligini eslatib o‘tish joiz.

Monografiyani tayyorlashda muallif pedagog olimlarimizning tavsiyalari va individual yondashuvlariga asoslaniladi. Unga doir fikr-mulohazalarinigizni kutib qolamiz.